

Talabalarimiz Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muxandislik bilim yurtida

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti harbiy kafedrasining Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muxandislik bilim yurti bilan hamkorligi natijasida ko'ra joriy yilning 5 aprel kuni talabalarimiz Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muxandislik bilim yurtida tajriba mashg'ulotlarida qatnashdilari. Mashg'ulotlar davomida talabalar taktik tayyorgarlik, zirxli texnikalar va qurol aslahalar, harbiy avtomobil texnikalarining tuzilishi, zirxli texnikalar va qurol aslahalar, harbiy avtomobil texnikalarini ekspluatatsiya qilish, jangovar mashinalarni va avtomobillarni amaliy haydash, otish tayyorgarligi fanlaridan bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishdi.

Shuningdek, jangovar texnikalarni ekspluatatsiya qilish va ta'mirlash, maxsus tayyorgarlik sikli talabalar bilan harbiy kafedra bazasida mavjud bo'lgan tank (avtomobil) larning o'quv va qirqma maketlaridan foydalangan holda, tank ekipaj a'zolarining tankdagi harakatlari davomida inobatga olinishi lozim bo'lган xavfsizlik qoidalari talablari, tank (avtomobil) ning boshqaruv organlarining ishlash tamoyilini, tank (avtomobil) dvigatelini o't oldirish usullarini, tankni amaliy haydash vaqtida o'rganuvchilar tomonidan bajarilishi shart bo'lган xavfsizlik talablari, jangovar mashinalar (avtomobillar)ni amaliy haydash asoslari, tank (avtomobil) larni amaliy haydash bo'yicha mashg'ulotlar va mashg'ulotlarga tegishli videofilmlar namoyishi tashkil etildi.

Yuqorida amalga oshirilgan tadbirlar natijasida talabalar ongida vatanparvarlik hissining yanada oshganligini, jangovar mashinalarning imkoniyatlaridan keng foydalanib O'zbekiston Respublikasini ishonchli himoyachisi bo'lishdek sharaflı kasb egasi bo'lish ko'nikmalariga ega bo'lishdi.

